

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand davlat universiteti

Tarix fakulteti

O'zbekiston tarixi kafedrası

O'zbekiston tarixi fani

Mavzu: Amir Temur shaxsi

Kurs ishi

2014-2015 o'quv yili

Bajaruvchi: 3-kurs talabasi Usmonova Q.

Ilmiy rahbar: Qo'shboqov H.

Kurs ishi O'zbekiston tarixi kafedrası komissiyasida himoya qilindi va
_____ ga baholandi. (Bayonnoma № _____ 2015)

Komissiya raisi: _____

Komissiya a'zolari: _____

Samarqand 2015-yil

REJA:

Kirish

- 1. Amir Temur buyuk davlat arbobi, yuksak ma'naviyat sohibi.**
- 2. Amir Temurning tuzuklarida komil inson qiyofasi.**
- 3. Temuriylar sulolasi davrida ma'naviyat va ma'rifat rivoji.**
- 4. Amir Temur va temuriylar davrida yaratilgan ma'naviy merosini
ma'naviy tiklanishida tutgan o'rni**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san'at va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, u "Temur tuzuklari" nomi ostida shuhrat topgan. Bu asar shaxsan Temurning og'zidan yozib olingan, deb hisoblanadi. Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining yo'nalishi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipoqlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida bayon etiladi.

Amir Temur fikricha, davlat xizmatchilari, xususan vazirlar to'rt zarur xislatga ega bo'lishlari lozim: 1) oliyjanoblik va ulug'vorlik; 2) aql-farosatlilik; 3) raiyat va qo'shin ahvolidan xabardorlik; 4) sabr chidamlilik va tinchliksevarlik.

Amir Temur muhim davlat ishlarini hal etish uchun chaqiriladigan kengashlarga katta ahamiyat bergan "o'z ishlarimning undan to'qqiz qismini men kengashlar oqsoqollar, amirlar, vazirlar, aqlli va ko'pni ko'rgan kishilar maslaxati asosida, faqat bir qismini qilich yordamida hal qildim", - degan edi. Kengashning qarorisiz Amir Temur hech qanday ishga kirishmas edi.

Davlat boshqaruvi tiziminng eng muhim tarkibiy qismi qo'shin bo'lib, uni takomillashtirish va mustahkamlashga Temur alohida ahamiyat bergan. Amir Temur jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga (qismga) bo'lib joylashtirish tartibini joriy qildi.

Temur o'z armiyasining jangovor tayyorgarligiga alohida e'tibor berish bilan birgalikda, u askarlarning ruhiy-ma'naviy xolatiga ham shunchalik katta ahamiyat bergan, ularning moddiy ta'minoti to'g'risida ham doimo

g'amxo'rlik ko'rsatgan. U o'z tuzuklarida ham bunga alohida to'xtalib o'tgan. Shuning uchun ham uning sadoqatli, temirdek mustahkam, jangovor qo'shini hamisha zafarlar ketidan zafarlar quchdi.

Amir Temurning muhim tarixiy xizmatlaridan biri shuki, u o'z ona yurti-Movarounnahrni tor, biqiq xolatdan keng doiraga olib chiqib, uni boshqa geografik kengliklar bilan yaqindan bog'lab, ular o'rtasida har taraflama iqtisodiy, tijorat va boshqa aloqalarni o'zaro manfaatli asoslarda kuchaytirishga katta e'tibor berdi. Turli mamlakatlarni bog'lovchi savdo karvonlari bexatarligi, osoyishtaligini ta'minlash, ayniqsa, Buyuk ipak yo'li shuhratini tiklash borasida qilingan sa'y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, Sharqu-g'arb, Janubu-Shimol o'rtasidagi elchilik va savdo-tijorat munosabatlari yanada kuchaydi, bu esa Temur davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy yuksalishida hal qiluvchi rol o'ynadi.

Amir Temur mohir diplomat sifatida qaysi mamlakat bilan aloqa bog'lashga yo'l tutsa, u dastavval, ikki o'rtadagi har bir masala, muammoni urushsiz, nizolarsiz tinch, muzokaralar yo'li bilan hal etishga intilgan, boshqa hukmdorlarni shunga da'vat etgan. Urush harakatlariga esa faqat noiloj hollardagina izn berilardi. Xususan, Sohibqironning Oltin o'rda xoni To'xtamishxon, Turkiya sultoni Boyazid Yildirim singari hukmdorlar bilan avval boshda olib borgan muloqotu yozishmalari ham bunga yaqqol guvohlik beradi.

Amir Temur o'z saltanati va ayniqsa, uning poytaxti Samarqandning obodonligiga alohida ahamiyat berdi. Uning hukmronligi davrida Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda Madrasa, Turkistonda Amad Yassaviy qabri ustiga maqbara barpo qildirdi. Xuddi shu davrda Samarqandda Shohi Zinda me'moriy yodgorliklarining maqbaralari, hozirgi vaqtda Bibixonim nomi bilan mashhur bo'lgan Jom'e Masjidi, Go'ri Amir dahmasi, Keshda

Oqsaroy, Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy qabilar bunyod etildi. Poytaxt atrofida go'zal bog'lar yaratildi.

Amir Temur buyuk davlat arbobi, yuksak ma'naviyat sohibi.

Amir Temur –buyuk shaxs kuragi erga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, tolantli memor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga el-yurti, xalqni sevgan va uni mashhuri jahon qilgan inson.

Uzoq va mashaqqatli kurashlardan so'ng Amir Temur o'z raqiblarini engib, xokimiyatni qo'lga kiritdi. Mayda tarqoq feodallarini birlashtirib, markazlashgan davlat bunyod etdi. Mamlakatda iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar qildi.

Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benihoyat katta.

Birinchidan; u mamlakatda yuqorida aytganimizdek, kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib, el-yurti o'z to'g'ri ostiga birlashtira oldi, mug'ullar zulmiga barham berib, markazlashgan yirik feodal davlatni yaratdi. Bu bilan hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratib berdi. Bugun "Temur va temuriylar madaniyati", "Temuriylar davlati", "Ulug'bek astronomiyasi maktabi", "Navoiy", "Bobur" kabi qutlug' so'zlari nafaqat o'zbekning, balki jahon xalqlari asarlari sahifalarida uchratar ekanmiz, bu gaplarning zaminida albatta, Amir Temurning ulkan xizmatlari yotadi.¹

Ikkinchidan, Amir Temur bir qator xalqlar va yurtlarni mustamlakachilar zulmidan ozod bo'lishiga yordam berdi. Masalan, o'sha davrning eng qudratli hukmdorlaridan hisoblagan Boyazid Yildirimni tormol keltirib, Bolqon yarim oroli va Evropa xalqlariga ozodlik bag'ishladi.

¹Amir Temur dunyo tarixida. T, Sharq, 1996.

Oltin O'rda xoni To'xtatishni ikki marta tor-mor etib, Rossiyani Mo'g'ullar hukmronligidan qutulishni tezlashtirdi.

Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni qunt bilan o'qisak, o'rgansak, uning ko'p yaxshi xislatlari: to'g'rilik, muruvvatlilik, el-yurtiga mehr-muhabbat va boshqalarni bilib olishimiz mumkin.

Amir Temurda vatanni sevish, xalqni ulug'lash faxrlanish va g'ururlanishi singari oliy ma'naviyat fazilatlar barq urib turgan.

Amir Temurning "Temur tuzuklari", Nizomiddin Shomiy va Sharfiddin Ali Yazdiylarning "Zafarnoma"lari, Ibn Arlbshohning "Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari" va boshqa asarlarda keltirilgan sohibqironning ibratli ishlari, pand-nasihatlari va o'gitlaridan ham uning kimligini bilib olsa bo'ladi. Bular el-yurt va fuqorolarning tashvishi, ranyatparvarlik, mehr-muruvvat, qo'shnichilikka rioya qilishi va nihoyat, mardlik va qahramonlik haqidagi o'g'itlardir.

Amir Temur 1370 yilda Movorounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirib, mustaqil davlatga asos soldi. 1370-1405 yillar davomida mazkur davlat asosida Osiyoning 27 mamlakatini o'zida birlashtirgan ulkan saltanat tuzub, bu davlatning har tomonlama taraqqiyoti va tinchligi, shuningdek, ma'naviy madaniyatining yuksalishi, gullab-yashnashi, o'tmish davrlar ajoyib an'alarining yangi tarixiy vaziyatda qayta tiklanishi uchun sharoit yaratdi. Amir Temurning salohiyati va buyuk ma'naviyat egasi ekanligi quyidagilarda namoyon bo'ladi. Aziz jonini garovga qo'yib Turon va Xurosondagi feodal tarqoqlikni bartaraf qilib, markazlashgan davlatga asos soldi. Ana shu hududdagi siyosiy ziddiyatlarga burkangan amiru beklarning qarshiligini goh qilich, goh siyosiy kelishuv bilan bartaraf qilib, ularni murosa-..... keltiribgina qolmasdan, ularning barcha kuch-imkoniyatlarini Vatan ravnaqi, yuksalishi sari burib yuboradi.

Ikkinchidan, davlatni boshqarish ishlari adolat ustuniga qurilib, bu boshqaruvga iymonli, diyonatli Vatan, el-yurt manfaatini ustun qo'yadigan, mardlik va oliyjanoblik sifatlarini uyg'unlashtira olgan davlat amaldorlarni tanlab joy-joyiga qo'ydi.

Uchinchidan, e'lon qilingan qonun va hukmlar so'zsiz o'z ijrosini topdi. Bu qonunlar xalq va davlat manfaatlari bilan hamohang edi. Bu qonunlar oddiy xalqqa ham, o'qimishli ziyoliga ham tushunarli, sodda, ammo hayotning muammolari echimini topa oladigan mazmun va mohiyatga ega edi.

To'rtinchidan, turli tabaqalar, ayniqsa, ishlab chiqarish bilan bog'liq sohalar ravnaqini ta'minlaydigan adolatli soliq tizimi ishlab chiqilgan edi.

Amir Temurning fikru-yodi Vatanni, xalq kuch-qudratini ulug'lash, boshqalar tomonidan e'tirof etilishini ko'zlab faoliyat yuritdi. Shu bilan Turon xalqlari kuchu mahoratida, jangu jadallardagi jasoratida, fan, ishlab chiqarish kabi barcha sohalarida dunyoda biron bir xalq yohud davlatdan kam emas, balki birinchilardan ekanligini o'zi bosh bo'lgan davr misolida isbotlab berdi.

Amir Temur o'z ma'naviy olamining kuchi va yuksakligi bilan jahonga ta'sir-qiladigan imkoniyatlarning mavjudligini ko'rsatdi, uni erkin, bir vaqtda favqulotda jasorat va qat'iylik bilan amalga oshirdi. Shu bilan dunyo siyosiy-xududiy xaritasini jahon xalqlari manfaatlari yo'lida o'zgartira olgan buyuk davlat arbobi va harbiysarkarda maqomiga ko'tarildi. Sohibquron bobomiz dunyoning unlab davlatlari birlashib amalga oshira olmagan siyosiy-harbiy ishlarga qo'l urdi. Bunga dastlab Tuxtamishdek hukmdor bilan keyingi navbatda esa Osiyo, Afrika va Evropa qit'asini titratgan Kichik Osiy hukmdori Yildirim Boyazid bilan bo'lgan hayot –mamot bobidagi siyosiy harbiy to'qnashuvlarda g'alaba qozonib, jahondagi o'zigacha o'tgan

davlat va harbiy arboblardan ham yuqoriga ko'tarila oldi. Jahonning keyingi tarixi ham uning bu balandlik va buyuklik pog'onasini e'tirof etadi. Shu bois Amir Temurning siyosiy harbiy manfaatlari to'qnashuvi va uning oqibatlari misolida yaqqol ko'rish mumkin. Tuxtemish Oq O'rda va Rus knyazliklari xududlarini bosib olgach, butun jahonda hukmronlik da'vosini amalga oshirish to'g'risida fikrlay boshladi. Buning uchun birinchi navbatda Amir Temurni siyosiy-harbiy maydondan yulib tashlash lozim edi. O'zining harbiy dahosiga ortiqcha baho berib, g'alabasiga ishongan To'xtamishxon Mo'g'iliston Xududlaridan to Boltiq bo'ylariga qadar xududlardan lashkar to'plab, 1391 yil yozida Samara atroflarida o'zining son-sanoqsiz lashkarini Amir Temur qo'shini bilan to'qnashuvga hozirladi. Jang jahon tarixida eng og'ir to'qnashuv bo'ldi. Har ikki tomon bemisl qurbonliklar berdi. Sohibquron Amir Temur to'la g'alaba qozondi. Biroq Muxtamish bu mag'lubiyatni tasodifga yo'yib, oradan 4 yil o'tib, yana Amir Temurga qarshi chiqadi. Bu jang, Shimoliy Kavkaz xududida sodir bo'ldi. Terek daryosi bo'yidagi bu jang avvalgisidan ham qirg'inli kechdi.

Amir Temur Tuxtamishni mag'lub qilar ekan, o'z saltanati va Vatani ravnaqi uchun qulay bo'lgan imkoniyatlarga ega bo'ldi. Avvalo Sharqiy Evropa va Dashti qipchoq, qozoq dashtlari tomonidan solinib turgan xavf-xatardan butunlay xolos bo'ldi. Shuningdek Chingizxongacha O'rta Osiyo orqali o'tgan va uning bosqini bilan yuzilib tashlangan Buyuk Ipak yo'lining Shimoliy – g'arbiy va shimoliy-sharqiy yo'nalishi qayta tiklandi. Bu esa Amir Temur davlati iqtisodiy hayotiga katta ijobiy ta'sirini o'tkazdi. Xitoy va Sharqiy va G'arbiy Evropa bilan savdo, diplomatik aloqalar qayta tiklandi.

Amir Temur davlatini dunyoga tanitgan va uni jahonning sarkardasi hamda davlat arbobi darajasiga ko'targan xizmatlaridan yana biri Ildirim

Boyaziddek saltanat egasini siyosiy maydondan chetlatib, engilmas armiyasini o'z poytaxti-Anqara ostonasida mag'lub etganligi bo'ladi.

Ayniqsa Evropa davlatlari Amir Temurni o'zlarining chinakam xaloskori deb bilardilar. O'z minnatdorchiligini bildirib, ushbu davlatlar qirollari elchilarini Tog'li Qarabog' va Samarqandga sohibqiron huzuriga junatib, siyosiy, iqtisodiy va harbiy shartnomalar imzolashdi. Xavfsizligini ta'minlashda Amir Temurning kuch-qudratga tayandilar, sohibquron siymosida buyuk davlat arbobi, engilmas sarkarda, ishonchli ittifoqni ko'rdilar.

Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyos. Amir Temur va uning avlodlari sa'y-harakatlari bilan qurilgan madrasalar, masjidlar, xanoqohlar, saroilar, bozorlar, qal'alar, kanallar va boshqa inshootlarni son-sanog'i yo'q. Amir Temurning bevosita rahnomaligi bunyod etilgan Bibixonim jome masjidi, Guri Amir, Axmad Yassaviy, zangi ota maqbaralari, Oqsaroy va Shohi Zinda me'moriy mo'jizalari, Bog'i Chinor, Bog'i Dilqush, Bog'i Behit, Bog'u Baland singari unlab go'zal saroy bog'lar va bu kabi boshqa inshootlar shular jumlasiga kiradi.²

Tarix bu ko'xna dunyoda juda ko'p jahongirlarni ko'rgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo'yi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan. Uning "qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga un g'isht quydirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim" degan so'zlari bunyodkorlik, yaratuvchanlik faoliyatining tasdig'idir. "Agar bizning qudratimizni bilmoqchi bo'lsangiz, qurgan binolarimizga boqing", deganda Amir Temur, avvalo o'z xalqiga, kelajak avlodlarga murojaat qilgay, desak yanglishmaymiz.

²Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. T.: 1978

Har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm-ma'rifatimiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni teran anglagan sohibqiron hokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki Farmonlarini madrasalar barpo etishiga, ilm toliblarga nafaqalar tayinlangan bilan boshlagan. Qaysi bir shaharga tashrif buyurmasin Amir Temur avvalo, o'sha erlik olimu fozillar bilan uchrashar, ular bilan suhbat qurar, turli mavzularda bahslashar edi.

Amir Temurning tuzuklarida komil inson qiyofasi

Amir Temur ma'naviyatini belgilovchi bosh mezon uning butun umr bo'yi amal qilgan "Kuch-adolatda" degan shioridir. Bu shiorda Amir Temur hayoti va faoliyatining butun mazmuni mujassamlashgan desak-to'g'ri bo'ladi. Amir Temurning ma'naviy va ma'rifiy qarashlari uning o'z farzandlari, kabilari taxt vorislariga qoldirgan o'gitlari.

"Temur tuzuklari"da mujassamlashgan komil inson qiyofasi. Bu bebaho tarixiy asarda, hokimlar va vazirlarning vazifalari, o'z ishiga munosabati, aholi turli qatlamlari-ranyatining xaq-huquqini himoya qilish, sinrehlarga munosabat kabi hayotiy ma'naviy-axloqiy qonun-qoidalar o'z ifodasini topgan. "Temur tuzuklari"da sohibqironning falsafiy huquqiy – siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlari o'z ifodasini topgan. "Tuzuklar" Amir Temurning buyuk davlat arbobi salohiyati, daholik harbiy san'at nazariyotchiligi, insoniylik dunyosining ma'naviy ruhiy quvvatlari bilan mardlik va shijoatining xududiy kengliklari haqida to'la tasavvur beradi. Binobarin tuzuklarda ifodalangan g'oyalar orqali Amir Temur ma'naviy olamining turli jabxalari yorqin ko'zga tashlanadi. Bir inson ega bo'lishi mumkin bo'lgan fazilatlar, iste'dodlar, voqealarga aql-idrok, teran zehin va

tafakkur bilan baho bera olish, har qanday og'ir vaziyat va sharoitlarda vazminlik, pirovard natijada uni o'z davlati, xalqi foydasiga hal etish kabi sohibqironiga xos sifatlar har bir inson uchun bugunda shuningdek kelajak avlodlar uchun ham ibrat maktabi, soboq bo'lib qoladi.

Sohibqironning "Temur tuzuklari"dan quyidagi sitrlarni mamnuniyat bilan o'qish mumkin:

"Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin."

"Zolimlardan mazlumlar xaqqini oldim. Zolimlar etkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm o'tkazmadim".

"Kimki birovning molini zurlik bilan tortib olgan bo'lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinlar. Agar kimda-kim tish sindirsa, ko'zini ko'r qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino qilsa, devondagi shariat qozisi yoki ahdos qozisiga olib borib topshirsinlar".

Quyidagi tuzuklarda Amir Temurning kechirimli xislatlari namoyon bo'lgan. Buni u boshqalaridan ham talab qilgan. Kechirimli bo'lish inson uchun eng yaxshi fazilat sanaladi:

"Menga yomonlik qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon etkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu qurquv bo'lsa, unut bo'lardi".

"Menga hasad qilib, o'ldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik sovg'a in'omlar berib, muruvvatu ehson ko'rsatdimki, bu yaxshiliklarni

ko'rib, xijolat teriga g'arq bo'ldilar. Hamisha mening roziligimni olib ish tutgan do'stlarim oldimga panoh tilab kelganlarida, ularni o'zimning taxtu davlatimga sherik qilib, hech qachon ulardan mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ayamadim”.

“Hech kimdan o'ch olish payida bo'lmadim. Tuimni totib, menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim”...!!

“Agar dushmaning bosh urib panohingga kelsa, rahm qilib yaxshilik va muruvvat ko'rsat”.

Amir Temurnining do'stlik haqidagi pandu-nasihatlari ham haligacha biz uchun ibratdir.

“Sodiq va vafodor do'st ulkim, o'z do'stidan ranjimaydi, do'stining dushmanini o'z dushmani deb biladi. Agar kerak bo'lsa, do'sti uchun jonini ham ayamaydi.

Amir Temurning umr bo'yi obodonchilik, qurilish ishlariga katta ahamiyat berganligi, kambag'alparvarligini uning quyidagi ug'itlaridan ham bilish mumkin:

“Kimki biron sahroni obod qilsa, yoki qoriz ko'rsa yo biror bog' ko'kartirsa, yoxud biror xarob bo'lib yotgan erni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar uchinchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'sinlar...”³

“Katta-kichik har bir shahar, har-bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langaxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar”.

³Temur va Ulug'bek davri tarixi. T.: 1996.

Amir Temurning quyidagi so'zlari asrlar osha xalqimizning asl farzandlarini el-yurt, Vatan haqida qayg'urishga chorlab keladi.:

“Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni quring, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang”. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin. Bu jumalalarda Amir Temur ma'naviyati jamul-jam bo'lgan bo'lsa ne ajab.

Buyuk sohibquron mafkurasining asosiy mohiyatini tashkil etgan- “millat dardiga darmon” bo'lishga chaqirig'i hozirgi kunda ham suv bilan havodek zarur da'vatdir.

“Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch- bunyodkorlik va buzg'unchilik g'oyalari xamisha o'zaro kurashadi. Bunyodkor g'oya insonni ulug'laydi, unign ruhiga qanoat bag'ishlaydi.

Sohibqiron Amir Temurning paroqanda yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga ana shunday ezgu g'oyalar asos bo'lgan”¹

Temuriylar sulolasi davrida ma'naviyat va ma'rifat rivoji.

Amir Temur va temuriylar davri, umuman Sharq, xususan O'rta Osiyo ilm-fani, madaniyati, adabiyot va san'ati rivojida muhim bosqich, yangi tarixiy davr tub burilishdir. Bu davrdagi ma'naviy-ma'rifiy hayotdagi ko'tarilish va yuksalishining manbai, boshlanishi IX-XII asrlarga borib taqaladi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrdagi O'rta Osiyoning madaniy, ma'naviy va ma'rifiy kamoloti IX-XII asr madaniyati, ma'naviyati, ma'rifatining davomidir. O'rta Osiyo xalqlari orasidan etishib chiqqan buyuk

¹Миллий истиқлол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: “Ўзбекистон”, 2000. 10-бет.

tafakkur egalarining butun bir avlodi xuddi shu davrda shakllandi va ijod etdi.

Butun dunyoga nomlari mashhur tarixchilar Sharofiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, olimlar – Mirzo Ulug’bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushni, faylasuf shoirlar-Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, musavvirlar – Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Miriq Naqqosh; hattotlar-Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad xandon, Muxammad bin Nur va boshqalar shular jumlasidandir. Ularning barchasi o’sha davr va o’zlarigacha bo’lgan insoniyat ma’naviyati, ma’rifati va madaniyati yutug’ining barcha sohalarini mukammal bilib va o’zlashtirib olgan, o’zlari tanlagan sohalarining hali hech kim tomonidan zabt etilmagan cho’qqilarini egallagan ulug’ siymolar, qomusiy ilm, aql egalari bo’lganlar.

Shuning uchun ham ularning boy, serqirra ijodlari tengi yo’q va takrorlanmas ilmiy-falsafiy, badiy,tarixiy asarlari asrlardan asrlarga, davrlardan davrlarga esan-omon o’tib, barcha alg’ov-dalg’ovlarga bardosh berib bizlargacha etib keldi.

Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari ijodida yuksak bosqichga ko’tarilgan mussavirlik san’ati Sharq uyg’onish davrining yutuqlaridan biridir. Behzod o’zinig takrorlanmas ijodi, go’zal miniatyura san’ati va ajoyib joy mahorati bilan nafaqat Sharqda, balki, butun dunyoda ham o’chmas iz qoldirgandir. “Ikkinchi Moniy”, “Sharq Rafaeli” deb yuksak darajada e’zozlangan Behzod mashxur so’z san’atkorlari – Jomiy, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon va boshqalarning simolarini yaratgan yuksak ma’naviyat egasidir.

Temuriylar davri ilm-fan, madaniyat, ma’rifat rivoji Mirzo Ulug’bekning nomi bilan chambarchas bog’lanib ketgan. U davlat arbobi, fan, ma’rifat xomiysi, buyuk omil va munajjim. U o’zi bunyod ettirgan

rasadxona va ilm ma'rifat markaziga turli sohalarda ish olib boruvchi 100 dan ortiq ilm ahillarini to'plab, keng jabhada ilmiy kuzatish ishlarini olib borgan. Bular Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi, Mavlono Axmad, Muhammad Xavofiy, Abdul Ali Birjondiy, Mirim Chalabiy, Muiniddin Koshiy kabi zamonning zabardast olimlari bo'lgan.

Mirzo Ulug'bek shu asosda Samarqandda "Ulug'bek akademiya"siga asos solgan edi. "Ziji jadidi Kuragoniy" (Kuragoniyning yangi astranomik jadvali") va "Turt ulus tarixi" nomli asarlarinig muallifidir.

Mirzo Ulug'bek fan xomiysi bo'lishi bilan birga, mamlakatda ma'rifat rivojiga ham katta ahamiyat bergan allomadir. U Movarounnahrda uchta madrasa qurdirdi. Bulardan biri Samarqandda (1417-1420), ikkinchisi Buxoroda (1417) va uchunchisi G'ijduvonda (1433)dir. Hatto, Buxorodagi madrasa peshtoqiga hadisdan: "Ilm olish har bir mo'min va muslima uchun farzdir", -deb yozdirib qo'ydi.

Mirzo Ulug'bek ko'proq buyuk olim, ilm-fan, ma'rifat xomiysi bo'lgani uchun ham yanada qadrlidir. U geometriya, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, mantiq, musiqa ilmlarini bilgan. Qur'on, Hadis va fiq ilmlaridan yaxshi xabardor bo'lgan allomadir. XV asrda aniq fanlarning, xususan astronomiyaning rivojida Mirzo Ulug'bekning xizmatlari beqiyosdir. Uning dahosi bugun ham insoniyatga xizmat qilmoqda.

Temuriylar davri ma'naviyati va ma'rifati rivoji o'zlarininng ongli hayoti va faoliyatini insonning baxt-saodati, xalqlar osoyishtaligi obodonlik ishlari, ilm-fan, adabiyot va san'at rivojiga bag'ishlangan ikki buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy (1414-1492) va Mir Alisher Navoiy (1441-1501) larning nomi bilan chambarchas bog'liqdir.

Abdurahmon Jomiy O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy olamida, badiii tafakkur osmonida yorqin nur sohib, o'lmas iz qoldirgan.mutafakkirlardan biridir. Abdurahmon Jomiy temuriylar davri dunyoqarashi, mafkurasi bo'lmish naqshbandiychilikka ixlos qo'ygan, uni qabul qilgan, o'zi shu yo'ldan borgan va uning g'oyalarini targ'ib etgan. Naqshbandtlik adolatni, o'z mehnati asosida bunyod etilgan halol luqmani ma'qullagan, dabdabali hayotni rad etgan, g'irrom yo'llar bilan mol-mulk topishni qoralagan. Bu ta'limot insonparvarlik, rostgo'ylik, halollik, mehnatsevarlik, ma'naviy poklik, kamtarlik, samimiylik kabi chin insonniy fazilatlarni ulug'laygan. Uning "Dil ba yoru dast ba kor" – "Ko'ngil Ollohdayu, qo'l mehnatda" shiori Jomiy va Navoiy kabi mutafakkirlarni o'ziga jalb etgan. Shu sababli bu ikki siymo, so'z san'atkorlari naqshbandiylik yo'lini qabul qilganlar va o'z ijodlarida uning g'oyalarini tarannum etganlar.

Abdurahmon Jomiy "Xirandnomi Iskandar" (Iskandar aqlnomasi) asarida el-ulus dardi bilan yashovchi, uning arzu dodiga quloq tutuvchi hukmdor siymosini yaratadi. Hukmdor adolatli va odil bo'lishi lozim deb, odillik va adolatni nurga o'xshatadi.

Agar chiqsa adolatning quyoshi,

Taralgay har tomon nuri ziyosi.

Agar zulm etsa zolim, bu sitamdan,

Jahon bo'lgay qaro, yo'q intihosi-deb xitob qiladi.

Jomiy el-ulusga, insonga yaxshilik qilish, ularga nisbatan muruvvat qo'rsatish inson jonini ulug'laydi, deb shohlarni, hukmdorlarni shunga chaqiradi:

Ey toju muhrgako'ngil bog'lagan,

Qachongacha tojumuhr qoladi?

Mulku boylik bari ketadi bir kun

Na zamon, na zamin na Nahr qoladi.

Qo'yilgan kelgancha yaxshilik qilg'il,

Jahonda senga shul mehr qoladi., -

deb yozgan Jomiy nechog'liq xaq ekanligini anglab yotmog'imiz darkor.

O'zbek xalqining buyuk farzandi, mutafakkir, davlat arbobi, o'zbek adabiyoti va tilining asoschisi Alisher Navoiy O'rta Osiyoning ma'naviy va ma'rifiy fikr taraqqiyotida alohida o'rin tutadi. U adabiyot san'atning turli sohalariga oid qirqdan ortiq asar yaratdi. "Chor devon", "Hamsa", "Mahbubul qulub", "Muhoqamat u-lug'atayn", "Majolis un-nafois", "Lison ut-tayr" va boshqalar shular jumlasidandir.

Alisher Navoiy o'z asarlarida zolim, mustabid, nodon maishatparast shoh va hukmdorlarni qoralab, ularga qarshi insonparvar, xalqparvar, odil, adolatli hukmdor obrazini qo'yadi.

Odami ersang demagil odami,

Oniki yo'q xalq g'anidin g'ami.

Mazkur bayt Alisher Navoiy ma'naviyati va insonparvarligining nuqtasi desak, hech yanglishmaymiz. Alisher Navoiy butun umri davomida insonparvarlikni, odamiylikni o'ylab, uni ulug'lab o'tgan. Kishilar g'amida bo'lish, yaxshilik qilish, muruvvat ko'rsatish bu buyuk zot hayotining mazmuni bo'lgan. Uning qabrida mana bu so'zlar bitib qo'yilgan: "Shohi g'aribon", ya'ni g'ariblar, yolg'izlar, faqirlar shohi.

Alisher Navoiy saxovat va muruvvatda benazir inson bo'lgan. O'zining joylardagi er-suvlari, mol-mulkalaridan kelgan daromadlarini to'laligicha xayriya ishlariga sarflagan.

Birgina Hirot shahrida o'zining jamg'armasi hisobidan qanchadan-qancha binolar, inshootlar barpo etgan. Injil kanalining janub tomonida katta tibbiyot o'quv yurti va shifoxona barpo ettirgan, ularga taniqli tabib va dorishunoslarni jalb etgan. Ixlosiya madrasasi yonida katta saroy qurdirib, undagi mexmonxonada kambag'al beva-bechoralarni tekin ovqat bilan ta'minlagan. Muhtoj kishilarga har yili ikki ming po'stin va kiyim-kechak tarqatgan.

Alisher Navoiyning bundan qariyb 550 yil avval ilgari surgan g'oyalari asrlar osha ahamiyatini, hayotiyligini yo'qotmagan. Prezidentimiz Islom Karimovning insonparvarlik, xalqlar tinchligi uchun olib borayotgan kurashi bilan hamohang bo'lib yangiramoqda.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri ilm-fan, ma'rifat, ma'naviyat va madaniyati jahon tsivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Bunda ulug' bobomiz, davlat arbobi, sarkarda sohibqiron Amir Temurning xizmatlari beqiyos va benazirdir. Buni hammamiz to'g'ri anglamog'imiz lozim, ul ulug' zod ila faxirlanishimiz barchamizning barchimiz.

Amir Temur va temuriylar davrida yaratilgan ma'naviy merosini ma'naviy tiklanishida tutgan o'rni

Milliy mustaqillik tufayli jahon ma'naviyati va ma'rifati sohasida o'z o'rinlariga ega bo'lgan piru-komil ajdodlarimizni va ular qoldirgan boy ma'naviy-ma'rifiy merosni teran anglash, o'rganish va ulug'lash imkoniyati

yuzaga keldi. Buyuk davlat arbobi, ma'rifat homiysi, yuksak ma'naviyat egasi Amir Temur va uning avlodlari qoldirgan, abadiylikka daxldor merosi bugungi kunda xalqimiz ruhiy-ma'naviy poklanishi va milliy o'zligini anglashning bitmas-tuganmas chashmasidir.

Biz bugun yashayotgan Mustaqil O'zbekiston davlatidagi tarixiy go'zal maqonlarning ko'pchiligi Amir Temur va temuriylar davrida vujudga kelgan. temuriylar davri har sohada chinakam uyg'onish davri bo'ldi. 150 yillik mustamlakachilik, 70 yilik qaramlik yillarida shunday buyuk zot, dunyoga mashhur davlat arbobi, ulug' bunyodkor Amir Temur shaxsiyatining asl mohiyatiga xolis va haqqoniy baho berish imkonidan mahrum bo'lib yashadik. Sho'ro tuzumi sohibqiron haqidagi haqiqatni xalqdan yashirib keldi. Bobokalonimiz to'g'risida ikki og'iz iliq so'z aytilgan barcha manbalar ko'zdan yashirildi, taqiqlandi yoki soxtalashtirildi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek. "Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora buyoq bilan o'chirildi, unitishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning yuragidan, milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotish, uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi".⁴ Yoki Prezidentimizning yana quyidagi so'zlarini eslaylik. "Shuro davrida bizga Amir Temurni bosqinchi, zolim, qonxur jallod, borib turgan johil, deb o'qtirib kelishdi.. Amir Temur haqidagi bu uydirma-sof siyosiy maqsadlarni ko'zlagan tuhmatdan iborat. Bilasizmi, bu ishlarning tagidagi maqsad bitta bo'lgan, ya'ni bizning o'zligimizni, tariximizni unuttirish bizni manqurtga aylantirish. Shuning uchun ham biz Amir Temurning hurmatini joyiga quyar ekanmiz, birinchi galda shu savobli ish orqali xalqimizning, millatimizning izzat-xurmatini joyiga qo'ygan bo'lamiz. Buni hech qachon unutmaslik zarur. O'zligimizni anglashimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklashimiz ham qarz, ham farz".

⁴Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. T.: "Fan" 1978

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilanoq Prezidentimiz Islom Karimov boy ma'naviy merosimiz, danu-imonimiz, qadriyatlarimiz, shu jumladan ulug' bobomiz sohibqiron Amir Temur nomini, u haqidagi tarixiy haqiqatni tiklashga shaxsan rahnamolik qilib kelmoqda. O'zbekiston mustaqilligi bizga buyuk sohibqironni ham qaytarib bergani bilan alohida qadrlidir. Xorijda siymosi yillar davomida teatr sahnalaridan tushmay kelgan, Evropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tilarida esa 900 ga yaqin kitoblar yozilgan, ko'pdan-ko'p suvratlari ishlangan, qisqasi, dunyoga mashhur bo'lgan ulug' zot Amir Temur yana xalqimiz qalbidan munosib o'rin oldi.

Istiqlolimiz endi ko'rtaq otayotgan davrda Toshkentning markazidagi xiyobonda sohibqironga o'rnatilgan muhtasham haykal mustaqillik poydevoriga qo'yilgan oltin g'isht bo'ldi.

1994 yilda Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi 1996 yilda esa sohibqiron tavalludining yilligi munosabati bilan dunyo miqyosida ulkan tadbirlar o'tkazildi. Parijdagi YuNESKO qarorgohida o'tkazilgan yubiley tantanalari muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra "Amir Temur" sayriya jamg'armasi tashkil etildi. Dunyoning taniqli siyosat arboblari, olimlari, yozuvchilari, tarixchilari ishtirokida ilmiy – amaliy anjumanlar o'tkazildi. Prezident farmoni bilan yuksak mukofot Amir Temur ordeni ta'sis etildi. Temuriylar tarixi davlat muzeyining barpo etilishi respublikamiz, xalqimiz hayotida muhim voqea bo'ldi. Yubiley munosabati bilan kuylab tarixiy-ilmiy asarlar, risolalar, albomlar va boshqalar. Shu o'rinda Amir Temurning o'zi yaratgan "Temur tuzuklari" risolasini akademik Buriboy Axmedovning "Amir Temur" tarixiy romanini, Erkin Azimovning "Amir Temur saltanati" risolasini, Abdulla Oripovning "Sohibqiron" she'riy dramasini, Sharafiddin Ali Yazdiy va

Nizomiddin Shomiylarning “Zafarnoma” asarlarini F.Ashrlfiyning “Temuriylar davri miniatyurasi” kabi nashrlarni alohida qayd etish mumkin.

Yuqorida aytganimizdek, o’zoq yillar davomida mustamlaka va qaramlik iskanjasi ostida kun kechirgan xalqimiz Amir Temur kabi o’z vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavqeyini munosib o’rniga ko’yish imkonidan maxrum edi. Bunga intilgan, harakat qilgan olim, faylasuf, tadqiqotchiga millatchi, o’tmishni ideallashtiruvchi degan tamg’a bosilar edi. Mustaqillik tufayli bularning hammasiga barham berildi. Mustaqillikning manashu nurafshon kunlarida yurtimiz uzra Amir Temurning ruhi bizdan rozi bo’lib kezib yurgan bo’lsa ne ajab!

“... davlatchiligimiz asoslarini yaratib ketgan Temur bobomiz g’ayrat-shijoati, yuksak aql-zakovati, tadbirkorligi, elparvarligi bilan bizga hamisha ibrat namunasi bo’lib qolg’usidir. Biz u zoti oliydan hamisha ruhiy madad olamiz”¹.

Bularning hammasi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mustaqillik tufayli o’zbek xalqining ma’naviy tiklanishi borasida olib borilayotgan keng jabhadagi xayrli ishlardan bir nishona xolos.

¹Каримов И.А. “Тарихий хотирасиз келажак йўқ” Т., “Шарқ” 1998. 15 бет.

Xulosa

Shunday qilib, Temur va temuriylar davrida o'lkamizda fan va madaniyat barq urib o'sdi, rivojlandi va kamol topdi. Fan va madaniyatning qaysi bir sohasini ko'zdan kechirmaylik, diyorimiz XIV-XV asrlarda jahon sivilizasiyasining oldingi saflaridan joy olganligining guvohi bo'lamiz. Temuriylar sulolasi davri jahon fani va madaniyatining Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ubaydulloh Ahror kabi ulug' vakillarni yetishtirib berdi. Bu davrda zamonasining iste'dodli shoirlari va adiblari Lutfiy, Bobur, Abdurahmon Jomiylar yashab ijod etishgan. Lutfiy nafis o'zbek tilida asarlar yozish bilan birga tojik tilida ham qasidalar bitdi. Lutfiyning "Zafarnoma", "Gul va Navro'z" dostonlari shu davr badiiy adabiyotining durdonalaridan biridir. Bu davr madaniyati taraqqiyotida ulug' shoir Abdurahmon Jomiyning roli buyukdir. Jomiyning yirik va mashhur asari yettita katta dostondan iborat "Xaft avrang", "Baxoriston" kabilardir.

Alisher Navoiy homiyligida Mirxond, Xondamir, Vasifiy va boshqa tarixchilar ijod qildilar. Xondamir 63 yillik umri davomida taxminan 13 ta asar yozgan, ulardan bizgacha sakkiztasi yetib kelgan.

Temur va temuriylar davrining ulkan muvaffaqiyatlaridan biri tasviriy san'atning gurkirab o'sganligi bo'ldi. O'z zamonasining mashhur rassomi Kamolliddin Behzod o'zining xayratomuz rassomchilik san'ati bilan "Moniyi soniy" (ikkinchi Moniy) va "Sharq Rafaeli" nomi bilan jahonga mashhur bo'lgan.

Kamolliddin Behzod tomonidan yaratilgan shoir Abdullo Xotifiy, Xusayin Boyqaro, Shayboniyxon portretlari, Sa'diyning "Bo'ston" kitobi va Nizomiyning "Hamsa" siga ishlangan rasmlar xalqning nodir yodgorliklari

sifatida Toshkent, Sankt-Peterburg, London, Tehron va boshqa shaharlarning muzey va kutubxonalarida saqlanmoqda. XIV-XV asrlardagi

Movarounnahr va Xurosonda moddiy va ma'naviy taraqqiyotning tamal toshini ulug' bobomiz Amir Temur qo'ygan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Amir Temur-faxrimiz, g'ururimiz. Asarlar, 5-tom. T.: "O'zbekiston". 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch T. "Ma'naviyat", 2008.
3. Amir Temur dunyo tarixida. T, Sharq, 1996.
4. Mo'minov I.Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. T.: 1978
5. Temur va Ulug'bek davri tarixi. T.: 1996.
6. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. T.: "Fan" 1978
7. Temur va Ulug'bek davri tarixi. T.: "Qomuslar taxririya" 1996.
8. Qayumov A. Alisher Navoiy. T.: Fan. 1994.